

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

YUSUF XOS HOJIBNING “QUTADG‘U BILIG” ASARIDA ADOLAT, DAVLAT VA INSON KAMOLOTI KONSEPSIYASI

Xo‘jayev Davron Nuriddinovich

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti, dotsent.

e-mail: davron1991@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-5335-831X>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida adolat, davlat boshqaruvi va inson kamoloti masalalari tarixiy-falsafiy hamda aksiologik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolada “Qutadg‘u bilig” faqat adabiy-didaktik yodgorlik emas, balki turkiy-islomiy siyosiy-falsafiy tafakkurning muhim manbasi sifatida talqin etiladi. Asarda adolat davlat barqarorligining asosiy mezoni, hukmdor faoliyatining axloqiy chegarasi va jamiyatlardagi ijtimoiy muvozanatning tayanchi sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, inson kamoloti aql, bilim, qanoat, axloqiy mas‘uliyat va ijtimoiy burch tushunchalari bilan uzviy bog‘liq holda ochib beriladi. Tadqiqotda “Qutadg‘u bilig”dagi adolat konsepsiyasi davlatni boshqarish madaniyati, rahbar shaxsiyati, xalq farovonligi va komil inson g‘oyalari bilan yaxlit tizimda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Yusuf Xos Hojib, “Qutadg‘u bilig”, adolat, davlat, hukmdor, komil inson, aql, qanoat, saodat, siyosiy falsafa, axloqiy kamolot, turkiy-islomiy tafakkur.

КОНЦЕПЦИЯ СПРАВЕДЛИВОСТИ, ГОСУДАРСТВА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ЧЕЛОВЕКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА «КУТАДГУ БИЛИГ»

Ходжаев Даврон Нуриддинович

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека, доцент.

Аннотация.

В статье с историко-философской и аксиологической точек зрения анализируются вопросы справедливости, государственного управления и совершенствования человека в произведении Юсуфа Хос Ходжиба «Кутадгу билиг». «Кутадгу билиг» рассматривается не только как литературно-дидактический памятник, но и как важный источник тюркско-исламской политико-философской мысли. В произведении справедливость выступает основным критерием устойчивости государства, нравственной основой деятельности правителя и опорой социального равновесия в обществе. Совершенствование человека раскрывается в неразрывной связи с понятиями разума, знания, умеренности, нравственной ответственности и общественного долга. В исследовании концепция справедливости в «Кутадгу билиг» анализируется как целостная система во взаимосвязи с культурой государственного управления, личностью правителя, благосостоянием народа и идеей совершенного человека.

Ключевые слова: Юсуф Хос Ходжиб, «Кутадгу билиг», справедливость, государство, правитель, совершенный человек, разум, умеренность, благоденствие, политическая философия, нравственное совершенствование, тюркско-исламская мысль.

THE CONCEPT OF JUSTICE, STATEHOOD, AND HUMAN PERFECTION IN YUSUF KHAJJAB'S “KUTADGU BILIG”

Xo‘jayev Davron Nuriddinovich

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan, Associate Professor.

Abstract.

This article analyzes the issues of justice, state governance, and human perfection in Yusuf Khass Hajib's “Kutadgu Bilig” from historical-philosophical and axiological perspectives. “Kutadgu Bilig” is interpreted not merely as a literary and didactic monument, but also as an important source of Turkic-Islamic political and philosophical thought. In the work, justice is presented as a fundamental criterion for the stability of the state, a moral foundation of the ruler's activity, and a basis for maintaining social balance. Human perfection is examined in close connection with the concepts of reason, knowledge, contentment, moral responsibility, and social duty. The study analyzes the concept of justice in “Kutadgu Bilig” as an integrated system interconnected with the culture of governance, the personality of the ruler, the welfare of the people, and the ideal of the perfect human being.

Keywords: Yusuf Khass Hajib, “Kutadgu Bilig”, justice, state, ruler, perfect human being, reason, contentment, prosperity, political philosophy, moral perfection, Turkic-

Kirish. Markaziy Osiyo Renessansi tafakkurida adolat va gumanizm g'oyalari alohida axloqiy tushunchalar sifatida emas, balki inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi umumfalsafiy tamoyillar sifatida shakllangan. Bu jarayonda Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari alohida o'rin tutadi. Chunki mazkur asarda davlatni boshqarish, hukmdor mas'uliyati, xalq farovonligi, inson kamoloti, aql, bilim, qanoat, adolat va saodat kabi tushunchalar yaxlit siyosiy-axloqiy tizim sifatida ifodalangan.

"Qutadg'u bilig" XI asr turkiy-islomiy tafakkurining yirik yodgorligi bo'lib, tadqiqotchilar uni Qoraxoniylar davri siyosiy-madaniy muhiti bilan bog'laydilar; manbalarda asar 1069–1070-yillarda yakunlanib, Koshg'arda hukmdorga taqdim etilgani qayd etiladi. Asarning muhim jihati shundaki, unda davlat masalasi faqat hokimiyatni qo'lga kiritish yoki uni saqlash muammosi sifatida emas, balki axloqiy tartib, ijtimoiy mas'uliyat va insoniy kamolot mezonlari orqali tushuntiriladi.

Yusuf Xos Hojib o'z davrining murakkab ijtimoiy-siyosiy sharoitida davlatni saodatga eltuvchi axloqiy institut sifatida ko'radi. Shu jihatdan "Qutadg'u bilig"ni "siyosatnoma", "pandnoma", "axloqiy-falsafiy doston" yoki "davlat boshqaruvi haqidagi nazariy manba" sifatida o'rganish mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ham asar davlat boshqaruvi, jamiyat, axloq va siyosiy tafakkur masalalarini o'zida mujassam etgan yodgorlik sifatida baholanadi.

"Qutadg'u bilig"dagi adolat konsepsiyasini tushunish uchun avvalo asarning ichki tuzilishiga e'tibor qaratish zarur. Asarda "to'rt asosiy timsol orqali davlat va jamiyat hayotining muhim tamoyillari ochib beriladi. Bular — Kuntug'di, Oyto'ldi, O'gdulmish va O'zg'urmish obrazlaridir. Tadqiqotlarda Kuntug'di adolat, Oyto'ldi davlat yoki saodat, O'gdulmish aql va bilim, O'zg'urmish esa qanoat va oxiratni eslatib turuvchi ma'naviy uyg'oqlik timsoli sifatida talqin qilinadi" [1]. Ushbu to'rt obraz oddiy badiiy qahramonlar emas, balki jamiyatni tartibga soluvchi falsafiy kategoriyalarning ramziy ifodasidir.

Bu tizimda adolat birinchi va asosiy o'ringa chiqadi. Chunki davlatning mustahkamligi, hukmdorning obro'si, xalqning ishonchi va jamiyatning barqarorligi aynan adolatga tayanadi. Yusuf Xos Hojib nazarida adolat hukmdorning shaxsiy fazilati bo'lib qolmaydi; u davlatning mavjudlik shartiga aylanadi. Agar davlat boshqaruvida adolat bo'lmasa, hokimiyat zo'ravonlikka, qonun manfaat vositasiga, xalq esa itoatkor ommaga aylanib qoladi. Shu sababli asarda adolat siyosiy hokimiyatni axloqiy chegaralovchi mezon sifatida talqin qilinadi.

"Qutadg'u bilig"dagi davlat konsepsiyasi ham aynan shu nuqtadan boshlanadi. Davlat insonlar ustidan hukmronlik qiluvchi tashqi kuch emas, balki jamiyatda tartib, osoyishtalik, farovonlik va saodatni ta'minlovchi axloqiy-siyosiy institutdir. Yusuf Xos Hojib davlatni shaxsiy manfaat yoki sulolaviy qudrat vositasi sifatida emas, balki xalq manfaatiga xizmat qiluvchi mas'uliyat maydoni sifatida ko'radi. Shuning uchun hukmdor obrazi faqat kuch, boylik yoki harbiy qudrat bilan emas, balki adolat, bilim, sabr, maslahatga quloq tutish, xalq dardini anglash va o'z nafsini jilovlash fazilatlarini bilan baholanadi.

Asarda davlat boshqaruvi masalasi rahbar shaxsining axloqiy kamoloti bilan bevosita bog'lanadi. Yusuf Xos Hojib uchun "yomon hukmdor — faqat siyosiy xato qilgan shaxs emas, balki axloqiy jihatdan yetilmagan insondir. Bunday hukmdor davlatni ham, xalqni ham xavf ostida qoldiradi" [2]. Demak, davlatning inqirozi avvalo axloqiy inqirozdan boshlanadi. Bu fikr "Qutadg'u bilig"ni zamonaviy siyosiy falsafa nuqtayi nazaridan ham muhim manbaga aylantiradi. Chunki hozirgi boshqaruv nazariyalarida ham davlatning samaradorligi faqat institutlar bilan emas, balki rahbarlik madaniyati, ijtimoiy ishonch, qonun ustuvorligi va mas'uliyat bilan bog'liq holda tushuntiriladi.

Yusuf Xos Hojibning adolat haqidagi qarashlarida muvozanat g'oyasi muhim o'rin tutadi. Adolat — bu faqat jazolash yoki mukofotlash emas, balki har bir narsani o'z o'rniga qo'yish, huquq va burch o'rtasidagi nisbatni saqlash, kuch bilan rahm-shafqat, qat'iyat bilan maslahat, hokimiyat bilan mas'uliyat o'rtasida uyg'unlik yaratishdir. Shu ma'noda adolat jamiyatning ichki tartibi, davlatning axloqiy asosi va insoniy munosabatlarning me'yoriy o'lchovidir.

Asarda adolatning yana bir muhim jihati uning xalq farovonligi bilan bog'lanishidir. Yusuf Xos Hojib nazarida adolatli davlat xalqni ezmaydi, balki uni himoya qiladi; xalqdan faqat talab qilmaydi, balki uning ehtiyojlarini ham hisobga oladi. Davlat boshqaruvi xalq bilan uzilgan holda mavjud bo'la olmaydi. Xalqning ishonchi yo'qolgan joyda davlatning ichki tayanchi ham zaiflashadi. Shu bois "Qutadg'u bilig"da hukmdor va xalq munosabatlari o'zaro burch va mas'uliyat asosida quriladi.

Maqolaning markaziy masalalaridan yana biri inson kamoloti konsepsiyasidir. Yusuf Xos Hojib uchun "komil inson — bu faqat diniy ibodat bilan cheklangan shaxs emas, balki bilimli, aqlli, odobli, adolatli, qanoatli, mas'uliyatli va jamiyatga foydali insondir. Inson kamoloti bir necha asosiy omil orqali yuzaga chiqadi: bilim, aql, til odobi, axloqiy poklik, ijtimoiy burch, qanoat va o'zini nazorat qilish" [3]. Bu jihatlar asarda davlat va jamiyat barqarorligining ham zarur sharti sifatida ko'rsatiladi.

Bilim Yusuf Xos Hojib tafakkurida insonni hayvondan ajratadigan, uni ijtimoiy va ma'naviy mavjudot darajasiga ko'taradigan asosiy kuchdir. Bilimsiz odam to'g'ri qaror qabul qila olmaydi, bilimsiz rahbar esa davlatni adolat bilan boshqara olmaydi. Shuning uchun "Qutadg'u bilig"da aql va bilim davlat boshqaruvining ham, shaxsiy kamolotning ham asosi sifatida talqin qilinadi. Bu jihatdan asar Markaziy Osiyo Renessansidagi ilmparvarlik va ma'rifatparvarlik an'anasi bilan uzviy bog'liq.

Inson kamolotining ikkinchi muhim jihati — axloqiy mas'uliyatdir. Yusuf Xos Hojib "insonni faqat individual manfaat egasi sifatida emas, balki jamiyat oldida burchi bor mavjudot sifatida talqin qiladi. Insonning qadri uning mansabi, boyligi yoki nasabida emas, balki aql-zakovati, odobi, adolati va boshqalarga foydasi bilan belgilanadi" [4]. Bu fikr gumanistik mazmunga ega. Chunki unda inson tashqi mavqei bilan emas, ichki fazilatlarini bilan qadrlanadi.

"Qutadg'u bilig"dagi qanoat g'oyasi ham inson kamoloti konsepsiyasining muhim tarkibiy qismidir. Qanoat

passivlik yoki hayotdan voz kechish emas, balki nafsni jilovlash, haddan oshmaslik, hokimiyat va boylik oldida axloqiy chegarani saqlashdir. Davlat boshqaruvida qanoat ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki qanoatsiz hukmdor zulmga, mansabdor poraxo'rlikka, boy kishi manmanlikka, oddiy inson esa hasad va norozilikka moyil bo'ladi. Demak, qanoat shaxsiy fazilat bo'lish bilan birga, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi axloqiy mexanizmdir.

Yusuf Xos Hojibning davlat va inson haqidagi qarashlarida saodat tushunchasi markaziy o'rinda turadi. "Qutadg'u bilig" nomining o'zi ham baxt, saodat, qut va bilim o'rtasidagi bog'liqlikni bildiradi. Asarda "haqiqiy saodat tasodifiy omad yoki moddiy boylik emas, balki adolatli boshqaruv, bilimli rahbarlik, axloqiy kamolot va xalq farovonligi natijasidir" [5]. Shu sababli davlatning maqsadi faqat tartibni saqlash emas, balki insonni saodatga yetaklashdir.

Bu nuqtada "Qutadg'u bilig" Al-Farobiy siyosiy falsafasi bilan ham ma'naviy yaqinlik kasb etadi. Al-Farobiyda fozil shahar insonni saodatga yetkazuvchi siyosiy-axloqiy tizim sifatida talqin qilinsa, Yusuf Xos Hojibda ham davlat inson hayotini adolat va bilim orqali tartibga soluvchi saodat makoni sifatida tushuniladi. Zamonaviy tadqiqotlarda Yusuf Xos Hojib va Al-Farobiy qarashlarida adolat va adolatli jamiyat masalalarida g'oyaviy uyg'unlik borligi ta'kidlanadi.

Shuningdek, "Qutadg'u bilig"da "davlat boshqaruvi faqat ichki tartib bilan cheklanmaydi. Unda elchi, vazir, lashkar, maslahatchi, olim, kotib, xalq va hukmdor o'rtasidagi munosabatlar ham muhim o'rin tutadi" [6]. Bu esa asarning oddiy nasihatnoma emas, balki davlat institutlari va ijtimoiy rollar haqidagi keng qamrovli siyosiy-falsafiy manba ekanini ko'rsatadi. Ba'zi tadqiqotlarda asarda davlat boshqaruvi, davlat-fuqaro munosabatlari, boshqaruv funksiyalari, ijtimoiy mas'uliyat, ta'lim va madaniyat masalalari keng yoritilgani qayd etiladi.

"Qutadg'u bilig"ning bugungi dolzarbliigi shundaki, unda davlat va jamiyatning axloqiy asoslari masalasi ko'tarilgan. Hozirgi zamonada ham davlat barqarorligi faqat iqtisodiy o'sish, huquqiy hujjatlar yoki ma'muriy islohotlar bilan belgilanmaydi. Buning uchun adolatli boshqaruv, xalq manfaatiga xizmat qilish, mansabdor shaxsning axloqiy mas'uliyati, bilimli rahbarlik va inson qadrini hurmat qilish zarur. Yusuf Xos Hojib ana shu masalalarni XI asrdayoq chuqur falsafiy tarzda qo'yg'an.

Asardagi adolat, davlat va inson kamoloti konsepsiyasini quyidagi tizimda umumlashtirish mumkin: adolat — davlatning axloqiy asosi; bilim — boshqaruvning intellektual mezoni; qanoat — hokimiyatni cheklovchi ichki nazorat; xalq farovonligi — davlatning ijtimoiy maqsadi; inson kamoloti — jamiyat taraqqiyotining oliy natijasi. Bu tizimda biror unsur zaiflashsa, butun ijtimoiy tartib izdan chiqadi. Masalan, bilim bo'lmasa, adolat ko'r-ko'rona hukmga aylanadi; qanoat bo'lmasa, hokimiyat zulmga aylanadi; xalq manfaatiga xizmat bo'lmasa, davlat o'z ma'nosini yo'qotadi; inson kamoloti bo'lmasa, jamiyat faqat tashqi tartib bilan cheklanib qoladi.

Xulosa. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida adolat, davlat va inson kamoloti masalalari o'zaro uzviy bog'langan falsafiy tizim sifatida namoyon bo'ladi. Asarda adolat davlatning asosiy tayanchi, hukmdor faoliyatining axloqiy mezoni va jamiyat barqarorligining zarur sharti sifatida talqin qilinadi. Davlat esa xalq ustidan hukmronlik qiluvchi kuch emas, balki adolat, bilim, maslahat, mas'uliyat va farovonlikka xizmat qiluvchi ijtimoiy-siyosiy institut sifatida tushuntiriladi. Yusuf Xos Hojib tafakkurida inson kamoloti bilim, aql, odob, qanoat, mas'uliyat va jamiyatga foydali bo'lish kabi fazilatlar orqali belgilanadi. Demak, "Qutadg'u bilig"da komil inson g'oyasi davlat boshqaruvi bilan bevosita bog'liq: komil insonsiz adolatli jamiyat bo'lmaydi, adolatli jamiyatsiz esa inson kamoloti to'liq ro'yobga chiqmaydi. Shu jihatdan "Qutadg'u bilig" Markaziy Osiyo Renessansi tafakkurida adolat va gumanizm g'oyalarining muhim manbalaridan biridir. Unda inson qadri, xalq farovonligi, adolatli hokimiyat, ma'rifatli boshqaruv va axloqiy mas'uliyat g'oyalari bir butun tizimda ifodalangan. Asarning bugungi ilmiy ahamiyati ham shundaki, u zamonaviy huquqiy davlat, xalqparvar boshqaruv, ijtimoiy adolat va ma'rifatli jamiyat haqidagi qarashlarni tarixiy-falsafiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hajiyeva G. "Kutadgu Bilig", Philosophical-Legal Political Treatise. – David Publishing, 2020.
2. Homidiy H. *Ko'hna Sharq darg'alari*. – Toshkent, 1999.
3. Vohidov R. J., Eshonqulov N. R. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. 1-qism. – Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, 2006.
4. Yuldasheva H. Sharq mutafakkirlari ta'limotlarida inson huquqlari madaniyatini yuksaltirish g'oyasi // *Oriental Art and Culture*. – URL: Oriental Art and Culture
5. Kolukirik S. The Concept of "Justice" in Yüsuf Khāss Hājib's "Kutadgu Bilig". – Akdeniz University AVESİS, 2023.
6. *"Kutadgu Bilig" — the Great Monument of World Turkic Studies: Topical Problems of Its Study: International Scientific-Practical Conference Materials*. – Tashkent: Tashkent State University of Oriental Studies, 2020.